

“MA’QULLANGAN”

“Mikrokreditbank”

aksiyadorlik-tijorat banki

Boshqaruvining

2023-yil “20” iyul dagi
97-3 -sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“Mikrokreditbank”

aksiyadorlik-tijorat banki

Kuzatuv kengashi majlisining

2023-yil “4” dekabr dagi
41 -sonli bayonnomasi bilan

Boshqaruv raisi


M.O.  O. Butayev

Kuzatuv kengashi raisi


M.O.  O. Isakov

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining
Audit qo‘mitasi to‘g‘risidagi
Nizom
(yangi tahrirda)**

Toshkent – 2023-yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining "Audit qo'mitasi to'g'risida"gi Nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan "2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi"ga, "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida" (ro'yxat raqami 3254, 2020-yil 30-iyun), "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 3302, 2021-yil 7-may) Nizomlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining (keyingi o'rinlarda – bank) Ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom Audit qo'mitasining (keyingi o'rinlarda – Qo'mita) vazifa va vakolatlari, majburiyatlari, ish tartibi, majlislar davriyligi, Kuzatuv kengashiga hisobotlar taqdim qilish tartibi va boshqa faoliyat asoslarini belgilaydi.

3. Qo'mita bank amaliyotidagi korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimlari ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan. Qo'mita bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvini quyidagi masalalar bo'yicha maslahat va tavsiyalar berish orqali qo'llab-quvvatlaydi:

- korporativ qadriyatlar va ahloq masalalari;
- risklarni boshqarish;
- ichki nazorat tizimlari;
- ichki audit, tashqi auditorlar va boshqa kafolat beruvchilarning funksiyalarini nazorat qilish;
- moliyaviy va boshqa ommaviy hisobotlar.

4. Qo'mita bank Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, bank Ustavi, "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizom hamda mazkur Nizom va bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi.

5. Qo'mitaning asosiy vazifasi vakolat doirasida masalalarni chuqur o'rganish hamda ular bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek bank Kuzatuv kengashining nazoratga doir vazifalarini bajarishida unga ko'maklashish hisoblanadi.

Qo'mita bank Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosi, bank strategiyasi va maqsadlarining bajarilish jarayonini tahlil qiladi, bank faoliyatiga oid muntazam hisobotlar va o'zlarining tavsiyalarini Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

2-bob. Qo'mitaning vazifa va vakolatlari

6. Qo'mita o'z faoliyati davomida quyidagi funktsiya va vazifalarni bajaradi hamda vakolatlarini amalga oshiradi:

a) moliyaviy hisobot masalalari bo'yicha:

bank Boshqaruvi va tashqi auditorlar bilan moliyaviy hisobotlarni, shuningdek foydalanilgan moliyaviy hisobot tamoyillarining asosligi va maqbulligini, moliyaviy hisobotlarni baholovchi muhim ko'rsatkichlarini, hisobotlardagi ahamiyatli tuzatishlarni muhokama qiladi;

bank Boshqaruvi, tashqi va ichki auditorlar bilan bankning Hisob siyosatidagi taklif qilingan (kutilayotgan) o'zgarishlarni va ushbu o'zgarishlar hisobotlar mazmuniga qanday ta'sir qilishini muhokama qiladi;

tashqi auditorlar va bank Boshqaruvi o'rtasida bankning moliyaviy hisobotiga oid har qanday ahamiyatli kelishmovchiliklarni ko'rib chiqadi;

bankning Hisob siyosatini tasdiqlanishidan avval ko'rib chiqadi va ma'qullaydi;

bankning yillik moliyaviy hisobotlarini tasdiqlanishidan avval ko'rib chiqadi va ma'qullaydi.

b) ichki nazorat va risklarni boshqarish masalalari bo'yicha:

tashqi va ichki auditorlarning ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlarining holati to'g'risidagi hisobotlarini tahlil qiladi;

ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlarining samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek ushbu va tegishli masalalar bo'yicha bank Kuzatuv kengashiga takliflar kiritadi;

ichki va tashqi auditorlarning ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlari bo'yicha tavsiyalarining bajarilishini nazoratini amalga oshiradi;

risklarni boshqarish va ichki nazoratda ahamiyatli risklar va nazorat masalalari va rejalarni ko'rib chiqish uchun bank rahbariyati bilan muntazam uchrashuvlar o'tkazadi;

Bankning ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlari bo'yicha siyosati va tartiblarini tasdiqlanishidan oldin ko'rib chiqadi va ma'qullaydi;

ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijalari va sifatini tahlil qiladi;

risk xaritasini baholaydi;

Bank Kuzatuv kengashiga barqaror rivojlanish sohasidagi risklar masalalari bo'yicha yordam ko'rsatadi;

nazoratga oid, moliyaviy va boshqa hisobotlarning taqdim etilishini, to'liqligini, ishonchligini nazorat qiladi.

d) tashqi audit masalalari bo'yicha:

tashqi auditor takliflarini baholashda bank Kuzatuv kengashiga amaliy yordam beradi, bankning tashqi auditorini tanlash va almashtirishni o'rganadi va ushbu masala bo'yicha bank Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlaydi;

tashqi auditdan bankka taqdim etiladigan (taqdim etishni rejalashtiradigan) barcha xizmatlarning ro'yxatini olish hamda uni tashqi auditorlar bilan muhokama qilishni ta'minlaydi. Taklif etilayotgan xizmatlar auditorning mustaqilligiga qanchalik mos kelishini baholaydi. Bank Kuzatuv kengashiga tashqi auditorning mustaqilligini ta'minlash choralari ko'rish yuzasidan tavsiyalar beradi;

tashqi auditdan taklif qilinayotgan xizmatlarni qabul qilinishidan avval o'rganib chiqadi hamda ma'qullaydi;

Bankning yillik moliyaviy hisobotlarini tasdiqlash uchun tashqi audit shartnoma loyihasining muhim shartlarini oldindan ma'qullaydi;

tashqi auditor bilan birgalikda yillik va oraliq audit natijalarini, shu jumladan auditorlik tekshiruv natijalari bo'yicha bank rahbariyatiga taqdim etiladigan tavsiyalarni ko'rib chiqadi va ularni bank Kuzatuv kengashiga taqdim etadi;

har yarim yillikda kamida bir marta bank rahbariyati vakillari ishtirokisiz tashqi audit bilan uchrashuvlar o'tkazadi;

tashqi auditorlarning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzilishi (bekor qilinishi) to'g'risida bank Kuzatuv kengashiga takliflar kiritadi;

bankning ichki va tashqi auditorlar bilan o'zaro aloqasini nazorat qilib boradi;

tashqi auditorlar uchun texnik vazifalarni ishlab chiqishda bank Kuzatuv kengashiga amaliy yordam beradi va tashqi auditning hajmi va davriyligini aniqlaydi;

ichki va tashqi audit hisobotlarini qabul qilib oladi hamda ularda va boshqa nazoratni amalga oshiruvchi bo'linmalar tomonidan aniqlangan qonunchilikka, bankning siyosatlar va ichki hujjatlariga nomuvofiqliklar va kamchiliklarni bank Boshqaruvi tomonidan o'z vaqtida bartaraf etilishi, shuningdek auditorlar tomonidan taqdim etilgan tavsiyalarning bank Boshqaruvi tomonidan bajarilishi ustidan nazorat qiladi;

tashqi auditorlik hisobot va xulosalarni ko'rib chiqadi va ularni bank Kuzatuv kengashiga taqdim etadi;

tashqi auditorlar faoliyati qoniqarsiz deb baholangan taqdirda, ularni o'zgartirish yuzasidan bank Kuzatuv kengashiga tavsiyalar beradi.

e) ichki audit masalalari bo'yicha:

Ichki audit departamenti (keylingi o'rinlarda – Departament) faoliyatini nazorat qiladi;

Departamentning yillik ish rejasini va budjetini tasdiqlanishidan avval ko'rib chiqadi hamda tegishli yilning 1-yanvariga qadar ularni, jumladan yillik ish rejani Kuzatuv kengashi tasdig'iga kiritilishi uchun ma'qullaydi va yillik budjetni tasdiqlaydi;

Departamentga bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan yillik ish rejasidan tashqari vazifalar yuklanishi Departamentning ish sifati va samaradorligi tushishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarni o'rganadi va tavsiya beradi;

Departamentning tarkibiy tuzilmasi va shtatlar soni, Bosh auditorni ta'yinlash, shuningdek uning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish, Departamentning ishlash tartibi to'g'risida takliflarni bank Kuzatuv kengashiga kiritadi;

Bosh auditor tavsiyasiga ko'ra Departament lavozimlariga ko'rsatilgan nomzodlarni ko'rib chiqadi hamda Departament direktori o'rinbosarlari va boshqa

xodimlarini lavozimlarga tayinlash va lavozimidan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qiladi;

Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida Departament xodimlarini rag'batlantirish va mukofotlash to'g'risida qaror qabul qiladi;

"Ichki audit departamenti to'g'risida"gi Nizom, ichki audit bilan bog'liq siyosatlar, ichki audit o'tkazish tartib-qoidalari hamda ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni, shuningdek ularga o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlashdan oldin ko'rib chiqadi va ma'qullaydi, Departamentning bank Boshqaruvidan mustaqilligini ta'minlaydi;

Departamentning choraklik hisobotlarini ko'rib chiqadi va Kuzatuv kengashiga taqdim etadi;

Departamentning vazifalarini samarali bajarishiga to'sqinlik qiladigan mavjud cheklovlar masalasini ko'rib chiqadi va bunday cheklovlarni bartaraf etishga yordam beradi;

har chorakda kamida bir marta Bosh auditor bilan bank Boshqaruvi a'zolari va bankning boshqa xodimlari ishtirokisiz uchrashuvlar o'tkazadi hamda Departament faoliyatiga oid masalalarni muhokama qiladi;

Departamentning faoliyati bo'yicha tashqi baholash natijalarini ko'rib chiqadi hamda tasdiqlash uchun bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritadi;

zarurat tug'ilganda Departament tomonidan rejadan tashqari tekshiruvlarni o'tkazilishi yuzasidan tashabbus ko'rsatadi;

agar bank Boshqaruvida Departamentga qiziqish bildirilayotgan masalani mustaqil tekshirish (baholash) o'tkazish zarurati tug'lsa, bank Boshqaruvi raisi audit (baholash) o'tkazishga ruxsat olish uchun Qo'mitaga murojaat qiladi;

Departament xodimlarining kasbiy malaka va ko'nikmalari muntazam va uzluksiz o'quv jarayoni orqali oshirib borishda ko'maklashadi;

Departamentning bank faoliyati, shu jumladan undagi ichki nazorat, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari va bank biznes-jarayonlari tashkil qilinishi samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarini ko'rib chiqadi;

bankning ichki nazorat tizimi va Departament faoliyati samaradorligi va monandligini ta'minlash uchun ularni baholaydi;

Bosh auditor o'z vazifa va majburiyatlarini qay darajada amalga oshirayotganligini baholashda ishtirok etadi va o'z fikrlarini bildiradi;

Bosh auditor bilan birgalikda davriy ravishda (yilda kamida bir marta) Departament xodimlari faoliyatini baholab boradi.

f) qonunchilikka rioya etilishi masalalarida:

Bankning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan ichki tartib-tamoyillari samaradorligini baholaydi;

Bank Boshqaruvining qonunchilikka rioya etilishi bo'yicha vakolatli organlarning (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Soliq qo'mitasi va boshqalar), shuningdek tashqi va ichki auditorlar hisobotlarini qabul qiladi va o'rganadi;

Bankda qonun buzilishi yoki suiste'molliklar, shu jumladan moliyaviy hisobotlarning to'liqligi va ishonchiligi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan

Bank xodimlari shaxsini maxfiyligini saqlagan holda yoki anonim tarzda murojaat qilishlari uchun sharoit yaratishni tashkil etish, shuningdek bunday murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi yuzasidan takliflar kiritadi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun Departament xodimlarining Departament doirasidagi rotatsiyasi hamda bank xodimlarining boshqa tarkibiy bo'linmalardan Departamentga yoki Departament xodimlarining boshqa tarkibiy bo'linmalarga rotatsiyasini amalga oshiradi.

g) faoliyati to'g'risidagi hisobot:

muntazam ravishda, lekin yiliga kamida bir marta Kuzatuv kengashiga Qo'mitaning faoliyati to'g'risida hisobot beradi;

o'z vakolati doirasidagi masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashi majlislariga ma'lumotlar tayyorlaydi va Kuzatuv kengashiga hisobotlar taqdim etadi;

moliyaviy hisobot va Departament bilan bog'liq bank ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda tasdiqlash jarayonida ishtirok etadi.

h) boshqa vazifa va vakolatlar:

zarur hollarda, bank Kuzatuv kengashiga maxsus o'rganishlar (tekshirishlar) o'tkazish, shu jumladan unga mustaqil ekspertlarni (konsultantlarni) jalb qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

firibgarlik holatlarini tahlil qiladi va umumlashtiradi, kelajakda firibgarlikning oldini olish bo'yicha bank Boshqaruvi tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarning yetarliligini baholaydi;

bank faoliyatining shaffofligi va ma'lumotlarning oshkor qilinishi yetarli darajada va aniq ekanligini ko'rib chiqadi;

Kuzatuv kengashi topshirig'iga asosan Qo'mita vakolatiga taalluqli boshqa vazifalarni bajaradi.

3-bob. Qo'mitaning tarkibi va uni shakllantirish tartibi

7. Qo'mitaning tarkibi bank Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanadi va uning a'zolari bank Kuzatuv kengashining 3 (uch) nafar a'zosidan tashkil topadi.

Qo'mita tarkibiga kamida 1 (bir) nafar Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi kiritilishi shart.

8. Qo'mita tarkibiga Qo'mita raisi va a'zolari bank Kuzatuv kengashi raisi tavsiyasi bilan kiritiladi.

9. Qo'mita tarkibi va a'zoliciga cheklovlar:

Qo'mita Kuzatuv kengashining boshqa qo'mita a'zolicida bo'lgan aynan bir shaxslar tarkibidan iborat bo'lishi mumkin emas;

bank Kuzatuv kengashining bir a'zosi bir vaqtning o'zida turli qo'mitalar raisi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi;

Qo'mitaning ko'pchilik a'zolari bankka aloqador shaxslar bo'lmasligi kerak, bundan ularning bank Kuzatuv kengashdagi a'zolicigi mustasno;

Qo'mita raisi bank Kuzatuv kengashi raisi bo'lmasligi lozim;

Qo'mita a'zosi bir vaqtning o'zida bank auditorlik tashkilotining xodimi bo'lmasligi kerak;

Qo'mita a'zosining yaqin qarindoshlari bank auditorlik tashkilotining xodimi bo'lmasligi kerak.

10. Qo'mitaning a'zolariga qo'yilgan talablar:

oliy ma'lumotga ega bo'lishi;

Qo'mita maqsadlari va vazifalariga mos keluvchi malaka va tajribaga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalari (IT), huquq, korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish va ichki nazorat sohasida yetarli jamoaviy bilim va tajribaga ega bo'lishi;

hech bo'lmaganda bitta a'zosi audit, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot bo'yicha kamida 5 yillik tajribaga ega bo'lishi lozim;

Bank Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lgan, Qo'mitaga saylangan shaxslar cheklanmagan miqdorda qayta saylanishlari mumkin.

11. Bank Kuzatuv kengashi raisi yoki Qo'mita raisi zaruratga ko'ra, Qo'mitaning tarkibiga istalgan vaqtda o'zgartirishlar kiritishni tashabbus qilish huquqiga ega.

4-bob. Qo'mita a'zolarining vakolatlari muddati

12. Qo'mita a'zolarining vakolatlari muddati bank Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanadi.

13. Bank Kuzatuv kengashi Qo'mita tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi qaroriga asosan, Qo'mitaning barcha yoki alohida a'zolarining vakolatlari muddatini belgilash huquqiga ega.

14. Agar Qo'mita a'zolarining vakolat muddatlari bank Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanmagan bo'lsa, Qo'mita a'zolarining vakolatlarini amalga oshirish uchun bu muddat bank Kuzatuv kengashi a'zosi sifatidagi vakolati muddatiga qadar amal qiladi, Qo'mitaning barcha yoki alohida a'zolarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan hollar bundan mustasno.

15. Qo'mitaning barcha yoki alohida a'zolarining vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin:

Qo'mita a'zosining o'z so'roviga binoan;

Qo'mita a'zosining bank Kuzatuv kengashi a'zosi sifatida vakolati muddatidan ilgari tugatilganda;

Bank Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq Qo'mita a'zosining vakolati muddatidan ilgari tugatilganda;

Bank Kuzatuv kengashning yangi tarkibi saylanishi munosabati bilan.

16. Qo'mitaning barcha yoki alohida a'zolarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilishi bank Kuzatuv kengashi qarori bilan rasmiylashtiriladi.

5-bob. Qo'mita a'zolarining huquq va majburiyatlari

17. Qo'mita a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Qo'mita majlislari kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish;

Qo'mita tomonidan o'z majlislarining kun tartibidagi har bir masala bo'yicha qaror shakllanishi uchun ovoz berishda ishtirok etish;

Qo'mita majlislarida shaxsan qatnashish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, Qo'mita majlislarida qatnashish va/yoki ushbu Nizomda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan qarorlar qabul qilish;

bank Kuzatuv kengashi, Boshqaruvi va bankning tegishli tarkibiy bo'linmasidan Qo'mita vakolati va vazifalari doirasida har qanday masala bo'yicha to'liq, asosli fikrni shakllantirish uchun zarur va yetarli darajada ma'lumot va hujjatlarni so'rash;

Qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladigan har qanday masalalar bo'yicha o'zining alohida fikrini bildirish va uning alohida fikrini Qo'mita majlisi bayonnomasida aks ettirishni va ularni qo'mitaning qarori (tavsiyalari) bilan birgalikda bank Kuzatuv kengashiga taqdim etishni talab qilish;

bank rahbariyati vakillari ishtirokisiz tashqi va ichki auditorlar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

ushbu Nizomda belgilangan tartibda Qo'mita tasarrufiga kiradigan masalalar bo'yicha har qanday tekshirish o'tkazish bo'yicha tashabbus ko'rsatish;

Qo'mitaning majlislari va qarorlari bayonnomalari, auditorlik xulosalari bilan tanishish;

Qo'mita majlisini chaqirishni talab qilish;

Qo'mita majlislari kun tartibiga masalalar kiritish bo'yicha takliflar berish;

auditorlik tashkiloti va Departamentdan hujjatlarni va materiallarni so'rab olish va ulardan foydalanish;

agar bankka jiddiy moddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan yoki yetkazilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan qoidabuzilishlar aniqlansa, Boshqaruv majlisi chaqirilishini talab qilish;

bankning tarkibiy bo'linmalari xodimlari, shu jumladan rahbarlaridan ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha izohlar talab qilish;

aybdor xodimlarni intizomiy, mulkiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortish masalalarini Boshqaruvga ko'rib chiqish uchun taqdim qilish;

bankning dastlabki buxgalteriya, moliya va boshqa hujjatlaridan foydalanish;

Qo'mita vakolatlari doirasidagi qaror va topshiriqlarni bajarish, qo'mita majlislari ishtirok etish maqsadida zarur bo'lgan holatlarda qo'mita raisi qarori bilan bankning rahbar xodimlarini, bank Kuzatuv kengashining boshqa a'zolarini davriy yoki muntazam ravishda taklif etish;

Qo'mita fikriga ko'ra masalani chuqurroq o'rganilishiga zarurat bo'lsa, qo'mita vakolatlariga tegishli bo'lgan masala bo'yicha o'z tashabbusiga ko'ra, bank Kuzatuv kengashining boshqa qo'mitalarining fikrini talab qilib olish;

Qo'mita majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish, kun tartibidagi masalalar, qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining alohida fikrini qo'mita majlisi bayonnomasiga kiritishni talab qilish;

bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlash uchun mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar berish;

zarur hollarda Qo'mita vakolati va vazifalariga kiruvchi masalalar bo'yicha maxsus bilimga va ko'nikmaga ega bo'lgan uchinchi shaxslarni mutaxassis (maslahatchi) sifatida jalb qilish;

O'zbekiston respublikasi qonunchiligi va bankning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq Qo'mita a'zolari boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

18. Qo'mita a'zolari quyidagilarga majburdir:

o'z faoliyatini aksiyadorlar va umuman bank manfaatlari asosida ushbu Nizomga muvofiq halol va vijdonan amalga oshirish;

o'z vazifalarini samarali bajarish uchun yetarli vaqt ajratish;

Qo'mita majlislarida qatnashish va kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish;

Qo'mita majlislarida shaxsan qatnashish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, Qo'mita majlislarida masofadan onlayn qatnashish va/yoki ushbu Nizomda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan qarorlar qabul qilish;

Qo'mita majlisida taqdim etilgan materiallar va hujjatlar bilan tanishish va ularni o'rganish;

Qo'mita tomonidan o'z majlislarining kun tartibida qarorlar qabul qilinishida ovoz berish;

Qo'mita majlisining kun tartibida muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha shaxsiy manfaatdorligi mavjudligi to'g'risida Qo'mitaning boshqa a'zolarini darhol xabardor qilish;

Qo'mita majlisining kun tartibidagi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish vaqtida manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida Qo'mita va bank Kuzatuv kengashining boshqa a'zolarini darhol xabardor qilish;

hisob siyosatini tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashiga kiritish hamda uning ijrosini nazorat qilish;

moliyaviy hisobot, shu jumladan, konsolidatsiyalashgan hisobotning buxgalteriya standartlari va hisob siyosatiga muvofiqligini tahlil va nazorat qilish;

Qo'mita bank auditorlik tashkilotining so'roviga ko'ra, auditorlik tekshiruv jarayonida yuzaga kelgan masalalar yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar berish;

bank aksiyadorlarining huquqlari, manfaatlari va qiziqishlarini himoya qilish tamoyillari asosida faoliyat yuritish;

o'z vazifalarini bajarishda bankka zarar yetkazishi yoki boshqa zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, bunday harakatlar va bayonotlarni bajarishdan tiyilish;

Qo'mita faoliyati doirasida olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;

bank tizimida bank siri va tijorat siriga oid ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga rioya etgan holda sir saqlanishini ta'minlash.

19. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va bankning boshqa hujjatlariga muvofiq Qo'mita a'zolariga boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

6-bob. Qo'mita raisining vakolatlari

20. Qo'mita raisi bank Kuzatuv kengashi a'zolar orasidan saylanadi va o'zi boshchiligidagi qo'mita ishini tashkil qiladi, xususan:

Qo'mita majlislarini chaqiradi, majlislarni o'tkazish shaklini belgilaydi va ularga raislik qiladi;

Qo'mita majlislarining kun tartibini shakllantiradi;

Qo'mita majlislari bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtirilishini tashkil qiladi;

Qo'mita majlislarida masalalarni muhokama qilishni tashkil qiladi, shuningdek, majlisga taklif qilingan shaxslarning fikrlarini eshitadi;

Qo'mita qaror qabul qilishi uchun zarur bo'lgan eng to'liq va ishonchli ma'lumotlarni olish hamda bank Kuzatuv kengashi bilan samarali hamkorlikni ta'minlash maqsadida bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari, bankning tarkibiy bo'linmalari bilan doimiy aloqada bo'ladi;

o'z a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, ularga qo'mita majlislarida ko'rib chiqish uchun masalalarni o'rganish va tayyorlash bilan bog'liq ko'rsatmalar beradi;

Qo'mita qarorlarini bajarish bo'yicha ishlarni ta'minlaydi va muvofiqlashtiradi;

Qo'mita majlislari kun tartibidagi masalalarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha bank Kuzatuv kengashiga tavsiyalar beradi;

Kuzatuv kengashi majlislari rejasini hisobga olgan holda joriy yil uchun Qo'mita ishining jadvalini (rejasini) ishlab chiqish va tasdiqlashni ta'minlaydi, o'zi boshchiligidagi qo'mita qarorlari va ko'rsatmalarining to'g'ri bajarilishini nazorat qilishni ta'minlaydi;

yil yakunlari bo'yicha Qo'mita faoliyati to'g'risida hisobot tayyorlaydi va Kuzatuv kengashiga hisobot beradi;

Departament xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzish, bunday vakolatlar boshqa shaxslarga berilgan hollar bundan mustasno;

Bank Kuzatuv kengashi qarorlari bilan belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi va Qo'mita nomidan hujjatlarni imzolaydi.

21. Qo'mita raisi kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda o'zi boshchiligidagi qo'mita faoliyatini samarali tashkil etish uchun tashkiliy va yetakchilik fazilatlariga, yaxshi muloqot qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

22. Qo'mita raisi majlisda bo'lmagan taqdirda, majlis raisligiga tomonlar kelishuvi asosida, Qo'mitaning ikkita a'zosidan biri saylanadi.

7-bob. Qo'mita ish tartibi va majlislarini tashkil etish

23. Qo'mita majlislari zaruratga qarab yoki Qo'mita majlislari jadvaliga muvofiq, lekin har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

24. Qo'mitaning muntazam va navbatdan tashqari majlislari uning raisi tashabbusi bilan yoki quyidagilarning talabiga binoan chaqirilishi mumkin:

bank aksiyadorlari;

Kuzatuv kengashi a'zolari;

Qo'mitaning har qanday a'zosi;

Departament direktori – Bosh auditor.

25. Qo'mita majlisida Qo'mita a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan bo'lsa, majlis kun tartibidagi masalalarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish vakolatiga (kvorumga) ega bo'ladi.

26. Qo'mita a'zolari Qo'mita majlislarida baland ovozli video yoki telefon aloqasi yoki boshqa ajratilgan aloqa kanallari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Biroq, bu holatda ishtirok etish tizimi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

tizimga ulanish usullari Qo'mita a'zosining shaxsini ishonchli aniqlashga imkon bersa;

Qo'mita a'zosi tomonidan taqdim etilgan ovoz aniqlik bilan qayd etilsa;

Qo'mitaning har bir qarori uchun ovoz berishda Qo'mita a'zosiga majlis kun tartibidagi biron-bir masala bo'yicha o'z fikrini bildirish va real vaqt rejimida uning muhokamasida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lsa;

shuningdek tijorat, rasmiy, bank va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarning saqlanishini ta'minlasa.

27. Qo'mita a'zolarining Qo'mita majlisida shaxsan yoki ushbu Nizom 26-bandida nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ishtirok etish imkoni bo'lmasa, Qo'mita a'zosi Qo'mita raisi bilan kelishilgan holda oldindan yozma ravishda (byulletenni to'ldirish yoki boshqa tarzda) Qo'mitaning tegishli majlisi kun tartibiga ovoz berish huquqiga ega. Qo'mita a'zosining ilgari berilgan ovozlari ushbu majlisda qatnashgan Qo'mita a'zolarining ovozlari hisoblashda hisobga olinadi. Qo'mita qarorlarini qabul qilishda bunday ishtirok etishga Qo'mita a'zolarining kamida uchdan ikki qismi shaxsan qatnashgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

28. Zarur bo'lganda, bank Kuzatuv kengashining boshqa a'zolari, Boshqaruv a'zolari, boshqa tarkibiy bo'linmalari xodimlari Qo'mita majlislariga ovoz berish huquqisiz taklif qilinishi mumkin.

29. Qo'mita majlisini ushbu majlisga raislik qiluvchi shaxs – Qo'mita raisi yoki u bo'lmagan taqdirda uning o'rnini egallash huquqiga ega bo'lgan shaxs boshqaradi.

30. Qo'mitaning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Qo'mitaning har bir a'zosi faqat o'zi uchun ovoz berishi mumkin va uning ovozidan foydalangan holda Qo'mitaning boshqa a'zosi nomidan ovoz berish ta'qiqlanadi.

Ovozlar teng kelgan taqdirda, Qo'mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

31. Qo'mitaning qarorlari ochiq ovoz berish orqali Qo'mita a'zolari umumiy ovozining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlarni sanash, ularni aniqlash va ovoz berish natijalarini aks ettirish Qo'mita majlisi kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

32. Istisno hollarda, Qo'mitaning qarorlari sirtidan ovoz berish orqali qabul qilinishi mumkin. Qo'mitaning sirtidan ovoz berish orqali qaror qabul qilish imkoniyati Qo'mita raisi tomonidan alohida holatlarda va ko'rib chiqilayotgan masalalarning dolzarbligi darajasini va ularni tezkor ko'rib chiqilishini hisobga olgan holda Qo'mita a'zolari bilan kelishilgan holda belgilanadi.

33. Qo'mitaning sirtidan ovoz berish orqali qabul qilingan qarori, kun tartibidagi masalalar bo'yicha Qo'mita a'zolarining umumiy soniga va ular bo'yicha ovoz berish natijalariga ko'ra, Qo'mita raisi tomonidan (qog'ozda yoki elektron tarzda) olingan ovoz berish byulletenlari hisobga olingan kворum bo'lsa, qabul qilingan deb hisoblanadi. Belgilangan muddat tugaganidan so'ng olingan ovoz berilmagan hisoblanadi va ovoz berish byulletenlari ovoz berish kворumini va ovoz berish natijalarini hisoblashda hisobga olinmaydi.

34. Bank Boshqaruvi a'zolari, Departament va boshqa tarkibiy bo'linmalari xodimlari Qo'mitaga yordam ko'rsatishi, shuningdek o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha Qo'mitaning ko'rsatmalarini bajarishi shart.

35. Bank Boshqaruvi va boshqa tarkibiy bo'linmalarning Qo'mitaga murojaatlari odatda bank Kuzatuv kengashi kotibiyati orqali taqdim etiladi.

36. Qo'mitaning qaror, topshiriq va boshqa murojaatlari tegishli bank Boshqaruvi va boshqa tarkibiy bo'linmalariga Kuzatuv kengashi kotibiyati orqali yoki zarur hollarda to'g'ridan-to'g'ri yetkaziladi.

37. Qo'mita majlislari Qo'mita raisi yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs tomonidan olib boriladi.

Kuzatuv kengashi kotibiyati xodimlaridan biri Qo'mita majlislarida kotiblik qiladi va majlis kotibi Qo'mita majlislarida ovoz berish huquqsiz ishtirok etadi. Zaruratga ko'ra, Qo'mita majlis boshlanishida bankning boshqa tarkibiy bo'linma xodimlaridan birini kotib etib saylashi mumkin.

8-bob. Qo'mita majlislarining qarorlari

38. Qo'mitaning majlisida qabul qilingan qarorlar majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

39. Qo'mita majlisi bayonnomasi Qo'mita kotibi tomonidan besh ish kunida tuziladi va majlisga raislik qilgan shaxs, Qo'mita a'zolari va kotibi tomonidan imzolanadi.

40. Qo'mita majlisining bayonnomasi ushbu majlisda qatnashgan Qo'mita a'zolari bilan tanishtirilishi va ularning roziliklarini olish uchun tasdiqlanishi kerak. Qo'mita majlisi bayonnomasining bunday tasdiqlanishi elektron aloqa vositasida, shuningdek Qo'mitaning keyingi majlisida amalga oshirilishi mumkin.

41. Agar Qo'mita a'zosi Qo'mita majlisida qabul qilingan qarorga rozi bo'lmasa, u o'zining alohida fikrini ushbu majlis bayonnomasida aks ettirishni yozma ravishda talab qilishga haqlidir, bunda ushbu Qo'mita a'zosining yozma so'rovi majlisning tegishli bayonnomasiga majburiy ilova hisoblanadi.

42. Qo'mita majlisining bayonnomasida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:
majlis sanasi, vaqti va joyi;

majlisda ishtirok etgan Qo'mita a'zolari va shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar;

majlis kun tartibi;

majlis qatnashchilari tomonidan ovozga qo'yilgan Qo'mita qarorlarining matni;

majlis qatnashchilarining ovoz berish natijalari (ushbu majlis ishtirokchilarini "yoqlayman", "qarshiman", "betarafman" variantlari bo'yicha ovoz berganlarni aniqlashga imkon beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan holda);

Qo'mitaning qabul qilingan qarorlari matni;

Qo'mita qaroriga binoan boshqa ma'lumotlar.

43. Qo'mitaning sirdan ovoz berish orqali qabul qilingan qarori yozma shaklda rasmiylashtiriladi, unga Qo'mita raisi va kotibi imzo chekadilar, shuningdek, ular taqdim etgan sirdan ovoz berish byulletenlarida yoki boshqacha tarzda o'z pozitsiyalarini bildirgan Qo'mita a'zolari tomonidan tasdiqlanadi.

44. Qo'mita tomonidan qabul qilingan qarorlar (tashqi majlislar yoki sirdan ovoz berish) asosida, ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha Qo'mitaning yozma tavsiyalari tuzilishi mumkin, ular bank Kuzatuv kengashiga taqdim etilishi kerak.

Qo'mitaning bunday tavsiyalari bank Kuzatuv kengashida ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha Qo'mitaning fikrini aks ettiradi va mazkur tavsiyalar ob'yektiv va asoslantirilgan bo'lishi kerak.

45. Qo'mita majlislarining bayonnomalari, shuningdek, sirtidan ovoz berish byulletenlari va boshqacha tarzda ovoz berish ma'lumotlari bank Kuzatuv kengashi kotibiyati tomonidan saqlanadi. Bank Boshqaruvi Qo'mita majlislari bayonnomalarining xavfsiz saqlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, Qo'mita tomonidan qabul qilingan qarorlar nusxalari, ovoz berish byulletenlari, bayonnomalar jurnali, Qo'mita majlislari bayonnomalaridan ko'chirmalar berish uchun javobgardir.

9-bob. Qo'mita faoliyati samaradorligini baholash

46. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan Qo'mitaning o'tgan davrdagi faoliyatini baholash maqsadida Qo'mitaning har bir a'zosining samaradorligini yiliga kamida bir marotaba ko'rib chiqiladi.

10-bob. Qo'mita a'zolarini mukofotlash

47. Qo'mita a'zolariga to'lanadigan haq miqdori bankning ichki hujjatlariga, shu jumladan bank Kuzatuv kengashi a'zolariga ish haqini belgilash va to'lash va ularning xarajatlarini amalga oshirish qoidalariga muvofiq belgilanadi va to'lanadi..

11-bob. Qo'mita faoliyati to'g'risida hisobot

48. Qo'mita har chorakda bank Kuzatuv kengashiga o'zining faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobotini taqdim etadi.

49. Qo'mita hisoboti muhokama qilingan masalalar, tasdiqlangan ish rejaning bajarilishi va bank Kuzatuv kengashi topshiriqlarining ijro etilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

50. Qo'mita hisoboti Qo'mita raisi yoki Qo'mita a'zolari tomonidan imzolanadi va yozma yoki og'zaki ma'ruzalar shaklida bo'ladi.

12-bob. Qo'mita a'zolarining javobgarligi

51. Qo'mita a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda bankning manfaatlarini ko'zlab ish tutadi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

52. Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Qo'mita a'zolari javobgar bo'lmaydi.

13-bob. Yakuniy qoidalar

53. Ushbu Nizom bank Boshqaruvining 2023-yil 20-iyuldagi 97-3-sonli qarori bilan ma'qullangan. Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan olingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

54. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar bank Kuzatuv kengashi qarori bilan kiritiladi.

55. Ushbu Nizom kuchga kirgan kundan boshlab bank Kuzatuv kengashining 2022-yil 16-iyundagi 39-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan bankning "Audit qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomi o'z kuchini yo'qotadi.

56. Ushbu Nizom shartlari buzilgan taqdirda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

57. Mazkur Nizomda ko'rsatib o'tilmagan tamoyillar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

58. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

